
«Ochiq byudjet» jarayoni orqali eng ko'p ovoz bilan g'olib bo'lgan shaharimizdagi tibbiyot muassasalariga salkam 3 mlrd. so'mlik tibbiy jihozlar olib kelindi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 sentabrdagi «Ochiq byudjet» axborot portalini orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5250-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida «Ochiq byudjet» axborot portaliga Farg'ona shahar tug'ruq kompleksi va 3, 4, 5, 6 va 7-sonli oilaviy poliklinikalarga tibbiy jihozlar olish uchun taklif kiritilgan bo'lib, ushbu taklif ishchi komissiya va Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasining tegishli xulosasiga asosan qabul qilindi va ovoz berish jarayoniga o'tkazildi.

Farg'ona shahridagi tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida shahrimiz fuqarolari ovoz berish jarayonida faol ishtirok etdilar.

Tug'ruq kompleksiga 6 turdagi tibbiy jihozlar, jumladan infuziya nasosi, operatsiya stoli jamlanmasi, pulsoksimetr va boshqa tibbiy asbob-anjomlar yetkazib berildi. Poliklinikalarga ham zamonaviy tibbiy jihozlar ajratildi.

Ushbu zamonaviy tibbiy jihozlar tug'ruq vaqtiga yetmasdan dunyoga kelayotgan chaqaloqlarning salomatligini saqlashda ham yaqindan yordam beradi.

2022-06-27 10:12:57